
DXX RAISI KUBOGI VILOYAT BOSQICHIGA START BERILDI

Ma'lumki, mamlakatimiz bo'ylab "Mahallalarda yoshlar bilan yangicha ishlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-92-sonli qarori, Mahallalarda yoshlar bilan ishlash masalalarini muvofiqlashtirish bo'yicha Respublika komissiyasining 2022 yil 18 martdagi topshirig'i ijrosini ta'minlash, jumladan mahallalarda yoshlarni madaniyat, san'at, sport, axborot texnologiyalari va kitob o'qishga bo'lgan qiziqishini har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan besh tashabbusni joylarda keng targ'ib etish, ularni ma'naviy va jismoniy barkamol qilib turbiyalashga qaratilgan ma'naviy-ma'rifiy, ommaviy sport tadbirlarini o'tkazish, yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirish rejalashtirilgan. Xususan, futbol bo'yicha "Davlat xafsizlik xizmati raisi kubogi" musobaqasi o'tkazilmoqda. Bugun ushbu musobaqaning viloyat bosqichiga start berildi. Viloyat bosqichi ikki mintaqada bo'lib o'tmoqda. Ikkinchi mintaqada o'yinlariga Rishton va Uchko'prik tumanlari mezbonlik qilmoqda. Bugun bo'lib o'tgan dastlabki tur bahsida - Bag'dod tumani va Furqat tumani jamoalari maydonga tushishdi. Murosasiz o'tgan bellashuvda jangovar durang - 3:3 hisobi qayd etildi. Kunning ikkinchi bahsida - «Bo'ston» (Rishton) - «Hazrat Ali» (So'x) mahallasi jamoalari maydonga tushishdi. Shiddatli o'tgan uchrashuvda rishtonlik yoshlar 2:1 hisobida g'alaba qozonishdi. O'yinlar shanba kuni davom etadi.

Rishton tumani hokimligi Axborot xizmati

2022-06-17 13:32:58